O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 12 - dekabr 429-11-0-Q/23 Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-noyabrdagi 627-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ishlarni jadallashtirish, davlat xizmatlari sifatli ko‘rsatilishini ta’minlash, turli toifadagi davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini raqamlashtirish jarayonlarini uyg‘unlashtirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-noyabrdagi 627-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida:

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 -yil 27-noyabrdagi “Alohida uy-joyni (kvartira, uy, kvartiraning yoki uyning bir qismini) xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to‘g‘risida ma’lumotnoma hamda davlat mulki ob’ektini xususiylashtirish uchun buyurtmanoma berish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentlarini tasdiqlash haqida”gi 627-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023-yil 24-martdagi PQ-102-son qaroriga muvofiq davlat uy-joy fondiga qarashli uydagi kvartiraga (uyning bir qismiga) mulk huquqini e’tirof etish vakolati mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga o‘tkazilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shunday tartib joriy etilsinki, unga ko‘ra 2024-yil 1-iyuldan boshlab xususiylashtirilgan uy-joylarga oid davlat orderlari va ma’lumotnomalar tuman (shahar) hokimliklari tomonidan beriladi.

3. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasi (A.Saliyev), Farg‘ona viloyati Arxiv ishi hududiy boshqarmasi (D.Mallayev) bilan birgalikda 2024-yil 1-iyulga qadar Davlat aktivlarini boshqarish agentligining viloyat boshqarmasida xususiylashtirilgan uy-joylarga oid davlat orderlari va ma’lumotnomalar berish bo‘yicha shakllangan hujjatlar bazasini (arxivini) tegishli tuman (shahar) hokimliklariga topshirsin.

4. Barcha shahar va tuman hokimliklari:

tuman (shahar) hokimliklarining xususiylashtirilgan uy-joylarga davlat orderlari va ular bo‘yicha ma’lumotnomalar berish ishlarini tashkil etish hamda muvofiqlashtirish yuzasidan zarur choralar ko‘rsin;

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasi (A.Saliyev) hamda Raqamli texnologiyalar boshqarmasi (Y.G‘afurov) bilan birgalikda 2024-yil 1-iyulga qadar tuman (shahar) hokimliklari tomonidan xususiylashtirilgan uy-joylarga oid davlat orderlari va ma’lumotnomalar berish bo‘yicha shakllantirilgan hujjatlar bazasi (arxivi) raqamlashtirilishini hamda tegishli idoralararo elektron tizimlar bilan integratsiya qilinishini ta’minlasin. Bunda hujjatlar bazasini (arxivini) raqamlashtirish va boshqa binoga ko‘chirish xarajatlari tuman (shahar) mahalliy budjetlari daromadlarining prognozdan oshirib bajarilgan qismi hisobidan moliyalashtirilishi belgilab qo‘yilsin.

5. Quyidagilarni nazarda tutuvchi:

a) Alohida uy-joyni (kvartira, uy, kvartiraning yoki uyning bir qismini) xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to‘g‘risida ma’lumotnoma berish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamenti 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va 2024-yil 1-iyuldan boshlab amalga kiritilsin:

alohida uy-joyni (kvartira, uy, kvartiraning yoki uyning bir qismini) xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to‘g‘risida ma’lumotnoma berish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartibi;

davlat xizmatini tuman (shahar) hokimligi tomonidan davlat xizmatlari markazlari yoki O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o‘rinlarda — YaIDXP) orqali ko‘rsatish tartibi;

davlat xizmati yig‘im undirilmasdan ko‘rsatilishini;

b) Davlat mulki ob’ektini xususiylashtirish uchun buyurtmanoma berish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamenti 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va 2024-yil 1-yanvardan boshlab amalga kiritilsin:

nodavlat yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan davlat mulki ob’ektini xususiylashtirish uchun buyurtmanoma berish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartibi;

davlat xizmatini Davlat aktivlarini boshqarish agentligi yoki uning hududiy boshqarmalari tomonidan davlat xizmatlari markazlari yoki YaIDXP orqali ko‘rsatish tartibi;

davlat xizmati yig‘im undirilmasdan ko‘rsatilishini.

6. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasi (A.Saliyev) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda bir oy muddatda ushbu qaror bilan tasdiqlangan ma’muriy reglamentlarni amalda qo‘llashga yo‘naltirilgan o‘quv-amaliy seminarlar tashkil etilishi va o‘tkazilishini ta’minlasin.

7. Raqamli texnologiyalar boshqarmasi (Y.G‘afurov) Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasi (A.Saliyev) hamda Adliya boshqarmasi (A.Buriyev) bilan

birgalikda 2024-yil 1-yanvarga qadar:

YaIDXPda davlat xizmatlari ko‘rsatilishining har bir bosqichida murojaatlarning ko‘rib chiqilishini kuzatib borish imkoniyati yaratilishini;

ushbu qaror bilan tasdiqlangan davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentlariga muvofiq davlat xizmatlarini ko‘rsatish davlat xizmatlari markazlari va YaIDXP orqali joriy etilishini ta’minlasin.

8. Adliya boshqarmasi (A.Buriyev):

davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan ularning faoliyati doirasida davlat xizmatlarini ko‘rsatishning belgilangan tartibiga rioya etilishi bo‘yicha, jumladan, YaIDXP orqali, doimiy nazorat o‘rnatsin;

ushbu qaror bilan tasdiqlangan davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentlari talablari buzilgan hollarda, davlat organlari va boshqa tashkilotlarning mansabdor shaxslariga nisbatan belgilangan tartibda ma’muriy jazolar qo‘llasin.

9. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyati boshqarmasi (A.Saliyev):

bir oy muddatda Davlat uy-joy fondidan foydalanish va uni tasarruf etish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamenti loyihasini;

2025-yil 1-yanvarga qadar tuman (shahar) hokimliklari tomonidan xususiylashtirilgan uy-joylarga oid davlat orderlari va ma’lumotnomalar berish tartibiga rioya etilishini tahlil qilgan holda qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflarni Viloyat hokimiligi hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga kiritsin.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 12-dekabrdagi
429-11-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Alohida uy-joyni (kvartira, uy, kvartiraning yoki uyning bir qismini) xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to‘g‘risida ma’lumotnoma berish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning

MA’MURIY REGLAMENTI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Reglament alohida uy-joyni (kvartira, uy, kvartiraning yoki uyning bir qismini) xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to‘g‘risida ma’lumotnoma berish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartibini belgilaydi.

2. Ma’lumotnoma ushbu Reglamentga 1-ilovaga muvofiq sxema bo‘yicha beriladi.

3. Mazkur Reglamentda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

ariza beruvchi — xususiylashtirilgan turar joy mulkdori, uning oila a’zolari yoki qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda mulkdor nomidan vakillik qilish vakolati berilgan shaxs, shuningdek, xususiylashtirishga rozilik bergan shaxs;

alohida uy-joy, kvartira — davlat mulkida bo‘lib xususiylashtirilgan alohida uy-joy, kvartira, uy, kvartiraning yoki uyning bir qismi;

vakolatli organ — tuman (shahar) hokimligi;

so‘rovnoma — mazkur Reglamentga 2-ilovaga muvofiq alohida uy-joy, kvartirani xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to‘g‘risida ma’lumotnoma berish uchun so‘rovnoma shakli;

ma’lumotnoma — mazkur Reglamentga 3-ilovaga muvofiq alohida uy-joy, kvartirani xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to‘g‘risida QR-kod (matrik-shtrixli kod) bilan tasdiqlangan ma’lumotnoma shakli.

4. Alohida uy-joy, kvartirani xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to‘g‘risida ma’lumotnoma berish bo‘yicha davlat xizmati Davlat xizmatlari markazi tomonidan va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o‘rinlarda — YaIDXP) orqali vakolatli organ bilan hamkorlikda ko‘rsatiladi.

5. Davlat xizmatlari markazi va YaIDXP hamda vakolatli organ o‘rtasida axborot almashinuvi idoralararo elektron tizimlar orqali 1 ish soati mobaynida amalga oshiriladi.

6. Mazkur Reglament notariatning faol modeli doirasida notariuslar tomonidan «yagona darcha» tamoyili bo‘yicha xususiylashtirilgan turar joyni boshqa shaxsga o‘tkazish shartnomasini notarial tasdiqlashda xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar haqida ma’lumotnoma olishga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2-bob. Davlat xizmatini ko‘rsatish tartibi

7. Ariza beruvchi davlat xizmatidan foydalanish uchun Davlat xizmatlari markaziga o‘zi kelib murojaat qiladi yoki davlat xizmatlaridan elektron shaklda foydalanish uchun YaIDXPda ro‘yxatdan o‘tadi.

8. Ariza beruvchi o‘zi kelib murojaat qilgan taqdirda — Davlat xizmatlari markazi xodimi ariza beruvchi nomidan, YaIDXP orqali murojaat qilgan taqdirda esa — mustaqil ravishda ushbu Reglamentga 2-ilovaga muvofiq shakldagi so‘rovnomani elektron tarzda to‘ldiradi.

So‘rovnomaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

alohida uy-joy, kvartira mulkdori ekanligini tasdiqlovchi hujjat;

mulkdorning oila a’zosi bo‘lgan taqdirda, ushbu faktni tasdiqlovchi hujjat (mulkka egalik qilish huquqini tasdiqlovchi hujjat bilan birga);

vakilning vakolatini tasdiqlaydigan ishonchnoma.

9. So‘rovnoma to‘ldirilgandan so‘ng ariza beruvchi ma’lumotlarning to‘g‘riligini tekshirib, so‘rovnomani identifikatsiya qilishning zamonaviy vositalari (mobil-ID tizimi, elektron imzo, daktiloskopiya va boshqalar) bilan tasdiqlaydi.

10. Ariza beruvchi tomonidan so‘rovnomani elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash talab etilmaydi.

11. Vakolatli organ kelib tushgan so‘rovnomani 1 ish soati mobaynida ko‘rib chiqadi.

12. Vakolatli organ tomonidan so‘rovnomada xato va kamchiliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish uchun tegishli izohlar bilan Davlat xizmatlari markaziga, YaIDXP orqali murojaat etilganda — ariza beruvchiga qaytaradi.

13. Ariza beruvchi tomonidan xato va kamchiliklar bartaraf etilmagan yoki so‘rovnoma takroran xato va kamchiliklar bilan yuborilgan taqdirda, vakolatli organ so‘rovnomani ko‘rib chiqishni rad etadi.

So‘rovnomani qabul qilishni boshqa sabablarga ko‘ra rad etish taqiqlanadi.

14. Vakolatli organ tomonidan so‘rovnomani tekshirish jarayonida xato va kamchiliklar aniqlanmagan taqdirda, ma’lumotnoma Davlat xizmatlari markaziga, YaIDXP orqali murojaat etilganda — ariza beruvchiga yuboriladi.

15. Davlat xizmatini ko‘rsatganlik uchun yig‘im undirilmaydi.

3-bob. Yakunlovchi qoidalar

16. Davlat xizmatlari markazi va vakolatli organ o‘z faoliyatini amalga oshirishi natijasida olingan ma’lumotlarning sir saqlanishini ta’minlaydi.

17. Farg‘ona viloyati Adliya boshqarmasi hamda davlat xizmatlari markazlari ushbu Reglament talablari ijrosi bo‘yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlarning faoliyatini, shu jumladan YaIDXP orqali, doimiy nazorat va monitoring qilib boradi.

18. Ariza beruvchi ma’lumotnoma berish asossiz rad etilganda, shuningdek, vakolatli organ xodimlarining xatti-harakati (harakatsizligi) ustidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

19. Ushbu Reglament talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 12-dekabrdagi
429-11-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Alohida uy-joyni (kvartira, uy, kvartiraning yoki uyning bir qismini) xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to‘g‘risida ma’lumotnoma berish

SXEMASI

Bosqichlar	Sub’ektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Mulkdor, uning oila a’zolari, mulkdor tomonidan vakolat berilgan shaxslar va xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar	Xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to‘g‘risida ma’lumotnoma olish uchun Davlat xizmatlari markaziga o‘zi kelgan holda yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qiladi.	O‘z xohishiga ko‘ra
2-bosqich	1. Davlat xizmatlari markazi 2. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali	1. So‘rovnoma shaklini to‘ldirib, vakolatli organga (tuman (shahar) hokimligiga) yuboradi. 2. To‘ldirilgan so‘rovnoma avtomatik tarzda vakolatli organga (tuman (shahar) hokimligiga) yuboriladi.	1. So‘rovnoma to‘ldirilgandan keyin 30 daqiqada 2. Real vaqt rejimida
3-bosqich	Vakolatli organ (tuman (shahar) hokimligi)	So‘rovnomaga ko‘ra xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to‘g‘risida ma’lumotnoma taqdim etadi yoki so‘rovnomada xato va kamchiliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish uchun tegishli izohlar ko‘rsatgan holda qaytaradi.	1 ish soati ichida

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 12-dekabrdagi
429-11-0-Q/23-son qaroriga
3-ilova

Alohida uy-joyni (kvartira, uy, kvartiraning yoki uyning bir qismini) xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to‘g‘risida ma’lumotnoma olish uchun

SO‘ROVNOMA

Xususiylashtirilgan turar joy mulkdori — jismoniy shaxs to‘g‘risida ma’lumotlar	
1. Familiyasi, ismi, otasining ismi:	
2. Hudud:	
3. JShShIR (PINFL):	
4. Tug‘ilgan sanasi:	
5. Order raqami va sanasi:	
6. Pasport (ID-karta) seriyasi va raqami:	
Xususiylashtirilgan turar joy to‘g‘risida ma’lumotlar	
1. Turar joy joylashgan manzil:	
2. Xususiylashtirilgan turar joy kadastr raqami:	

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 12-dekabrdagi
429-11-0-Q/23-son qaroriga
4-ilova

Alohida uy-joyni (kvartira, uy, kvartiraning yoki uyning bir qismini) xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to‘g‘risida ma’lumotnoma berish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentiga

3-ILOVA

Xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to‘g‘risida

MA’LUMOTNOMA

Xususiylashtirilgan turar joy mulkdori — jismoniy shaxs to‘g‘risida ma’lumotlar	
1. Familiyasi, ismi, otasining ismi:	
2. Davlat orderi raqami va sanasi:	
Xususiylashtirilgan turar joy to‘g‘risida ma’lumotlar	
1. Turar joy joylashgan manzil:	
2. Turar joyga mulk huquqini beruvchi hujjat turi, sanasi va raqami:	
Xususiylashtirishda ishtirok etgan shaxslar to‘g‘risida ma’lumot	
Familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili (mavjud bo‘lsa):	
1.	
2.	

(vakolatli organ mansabdor shaxsi, lavozimi,) (F.I.O.)

QR-kod (matrik-shtrixli kod)

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 12-dekabrdagi
429-11-0-Q/23-son qaroriga
5-ilova

Davlat mulki ob’ektini xususiylashtirish uchun buyurtmanoma berish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning

MA’MURIY REGLAMENTI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Reglament nodavlat yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan davlat mulki ob’ektini xususiylashtirish uchun buyurtmanoma berish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartibini belgilaydi.

Mazkur Reglament davlat uy-joy fondiga qarashli uydagi kvartirani (uyning bir qismini) xususiylashtirishga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2. Davlat mulki ob’ektini xususiylashtirish uchun buyurtmanoma berish bo‘yicha davlat xizmati ushbu Reglamentga 1-ilovaga muvofiq sxema bo‘yicha ko‘rsatiladi.

3. Ushbu Reglamentda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

ariza beruvchi — davlat mulki ob’ektlarini xususiylashtirish yuzasidan ariza beruvchi nodavlat yuridik yoki jismoniy shaxs;

buyurtmanoma — davlat mulki ob’ektini sotish uchun mazkur Reglamentga 2 va 3-ilovalarga muvofiq tegishli buyurtmanoma shakli;

vakolatli organ — Davlat aktivlarini boshqarish agentligi yoki uning hududiy boshqarmalari;

davlat mulki ob’ekti — davlat ko‘chmas mulk ob’ektlari, xo‘jalik jamiyatlari ustav fondidagi (kapitalidagi) davlatga tegishli bo‘lgan ulushlar (aksiyalar);

xabarnoma — vakolatli organ mansabdor shaxslari tomonidan QR-kod (matrik-shtrixli kod) bilan tasdiqlangan xabarnoma shakli.

4. Davlat mulki ob’ektini xususiylashtirish yuzasidan ariza beruvchi davlat mulki ob’ektini sotish uchun Davlat xizmatlari markazi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o‘rinlarda — YaIDXP) orqali buyurtmanoma berishi mumkin.

5. Davlat xizmatlari markazi va vakolatli organ o‘rtasida axborot almashinuvi elektron raqamli imzoni (keyingi o‘rinlarda — ERI) majburiy tartibda qo‘llagan holda, faqat idoralararo elektron o‘zaro bog‘lanish orqali amalga oshiriladi.

6. Ariza beruvchi o‘zining doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan joyidan (yuridik shaxslar joylashgan manzilidan) qat’i nazar, istalgan Davlat xizmatlari markaziga borgan holda yoki YaIDXP orqali buyurtmanoma berishi mumkin.

2-bob. Davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartibi

7. Ariza beruvchi davlat xizmatidan foydalanish uchun Davlat xizmatlari markaziga o‘zi

kelib murojaat qiladi yoki davlat xizmatlaridan elektron shaklda foydalanish uchun YaIDXPda ro‘yxatdan o‘tadi.

8. Ariza beruvchi o‘zi kelib murojaat qilgan taqdirda, Davlat xizmatlari markazi xodimi ariza beruvchi nomidan, YaIDXP orqali murojaat etgan taqdirda esa-mustaqil ravishda ushbu Reglamentga 2 va 3-ilovalarga muvofiq shakldagi tegishli buyurtmanomani elektron tarzda to‘ldiradi.

Bunda buyurtmanomalar:

yuridik shaxs nomidan ushbu Reglamentga 2-ilovaga muvofiq shaklda rahbar yoki uning vakili tomonidan;

jismoniy shaxs nomidan ushbu Reglamentga 3-ilovaga muvofiq shaklda ariza beruvchining o‘zi yoki uning vakili tomonidan imzolanishi kerak.

9. Ariza beruvchi Davlat xizmatlari markaziga o‘zi kelib murojaat etganda buyurtmanoma Davlat xizmatlari markazi xodimi tomonidan to‘ldirilib, ariza beruvchi tomonidan tasdiqlangandan so‘ng real vaqt rejimida vakolatli organga elektron shaklda yuboriladi. YaIDXP orqali murojaat qilinganda esa, buyurtmanoma avtomatik tarzda vakolatli organga kelib tushadi.

10. Buyurtmanoma ariza kelib tushgan kundan boshlab 5 ish kuni ichida ko‘rib chiqiladi.

11. Vakolatli organ tomonidan buyurtmanomada xato va kamchiliklar mavjudligi aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish uchun tegishli izohlar bilan Davlat xizmatlari markaziga (YaIDXP orqali murojaat etilganda — ariza beruvchiga) qaytaradi.

12. Ariza beruvchi tomonidan xato va kamchiliklar bartaraf etilmagan yoki buyurtmanoma takroran xato va kamchiliklar bilan yuborilgan taqdirda, vakolatli organ buyurtmanomani ko‘rib chiqishni rad etadi.

Buyurtmanomani qabul qilishni boshqa sabablarga ko‘ra rad etish qat’iyan taqiqlanadi.

13. Vakolatli organ tomonidan buyurtmanomada xato va kamchiliklar aniqlanmagan taqdirda, ushbu Reglamentning 10-bandida nazarda tutilgan muddatda xabarnomani Davlat xizmatlari markaziga (YaIDXP orqali murojaat qilinganda — ariza beruvchiga) yuboradi.

14. Davlat xizmatini ko‘rsatganlik uchun yigim undirilmaydi.

3-bob. Yakunlovchi qoidalar

15. Davlat xizmatlari markazi va vakolatli organ o‘z faoliyatini amalga oshirishi natijasida olingan ma’lumotlarning sir saqlanishini ta’minlaydi.

16. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari hamda davlat xizmatlari markazlari ushbu Reglament talablari ijrosi bo‘yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlarning faoliyatini, shu jumladan YaIDXP orqali, doimiy nazorat va monitoring qilib boradi.

17. Ariza beruvchi buyurtmanoma berish asossiz rad etilganda, shuningdek, vakolatli organ xodimlarining xatti-harakati (harakatsizligi) ustidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

18. Ushbu Reglament talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 12-dekabrdagi
429-11-0-Q/23-son qaroriga
6-ilova

Davlat mulki ob’ektini xususiylashtirish uchun buyurtmanoma berish

SXEMASI

Bosqichlar	Sub’ektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Ariza beruvchi	Davlat mulki ob’ektini xususiylashtirishga buyurtmanoma berish uchun Davlat xizmatlari markaziga yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o‘rinlarda — YaIDXP) orqali murojaat qiladi.	O‘z xohishiga ko‘ra
2-bosqich	1. Davlat xizmatlari markazi 2. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali	1. Buyurtmanomani to‘ldiradi va tasdiqlaydi. 2. YaIDXP orqali murojaat etganda buyurtmanomani belgilangan elektron shaklda to‘ldiradi va tasdiqlaydi.	Real vaqt rejimida
3-bosqich	1. Davlat xizmatlari markazi 2. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali	1. Tasdiqlangan buyurtmanomani vakolatli organga (Davlat aktivlarini boshqarish agentligi yoki uning hududiy boshqarmalariga) yuboradi. 2. YaIDXP orqali murojaat etganda buyurtmanomani avtomatik tarzda yuboradi.	1. Buyurtmanoma to‘ldirilgandan keyin 30 daqiqada 2. Real vaqt rejimida
4-bosqich	Vakolatli organ (Davlat aktivlarini boshqarish agentligi yoki uning hududiy boshqarmalari)	1. Kelib tushgan buyurtmanomalarni ko‘rib chiqadi. 2. Kelib tushgan buyurtmanomalarda xato va kamchiliklar aniqlangan taqdirda, ularni izohlagan holda qaytaradi. 3. Xato va kamchiliklar mavjud bo‘lmagan taqdirda, buyurtmanoma qabul qilinganligi to‘g‘risida xabarnoma yuboradi.	5 ish kuni ichida

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 12-dekabrdagi
429-11-0-Q/23-son qaroriga
7-ilova

Davlat mulki ob’ektini sotish uchun

BUYURTMANOMA

_____ manzilida joylashgan
(manzil)

_____ ning
(davlat ko‘chmas mulk ob’ekti yoki davlat ulushi mavjud bo‘lgan xo‘jalik jamiyatining nomi)

davlat mulki ob’ektini sotish to‘g‘risida qaror qabul qilishingizni so‘rayman.

_____
(davlat ko‘chmas mulki ob’ekti bo‘yicha balansda saqlovchi)

_____
(ariza beruvchi to‘g‘risida ma’lumotlar)

_____
(nodavlat yuridik shaxsning nomi)

_____
(manzili, telefon raqami)

_____
(ro‘yxatdan o‘tkazish raqami va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sana)

_____
(tashkiliy-huquqiy shakli)

_____
(ustav fondidagi davlat ulushi, foizlarda)

Buyurtmanomani imzolashga vakil qilingan shaxs:

_____
(F.I.O., lavozimi)

Izoh. Hujjatni to‘ldirishda tuzatish va o‘chirib yozishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 12-dekabrdagi
429-11-0-Q/23-son qaroriga
8-ilova

Davlat mulki ob’ektini sotish uchun

BUYURTMANOMA

_____ning
(davlat ko‘chmas mulk ob’ekti yoki davlat ulushi mavjud bo‘lgan xo‘jalik jamiyatining nomi)

davlat mulki ob’ektini sotish to‘g‘risida qaror qabul qilishingizni so‘rayman.

_____ manzilida joylashgan
(manzil)

_____
(davlat ko‘chmas mulki ob’ekti bo‘yicha balansda saqlovchi)

_____
(ariza beruvchi to‘g‘risida ma’lumotlar)

_____
(jismoniy shaxsning F.I.O.)

_____
(manzili, telefon raqami)

_____
(pasport seriyasi, raqami, kim tomonidan va qachon berilgan)

Izoh. Hujjatni to‘ldirishda tuzatish va o‘chirib yozishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 12-dekabrdagi
429-11-0-Q/23-son qaroriga
9-ilova

Davlat mulki ob’ektini xususiylashtirish uchun buyurtmanoma berish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentiga

O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan blank

_____
(nodavlat yuridik yoki jismoniy shaxs)

Davlat mulki ob’ektini xususiylashtirish uchun buyurtmanoma berish yuzasidan XABARNOMA

Sizning_____ manzilida
(davlat mulki ob’ekti joylashgan manzili)

joylashgan _____
davlat mulki
(davlat mulki ob’ekti nomi)

ob’ektini xususiylashtirish uchun yuborgan buyurtmanomangiz qabul qilindi.
Amaldagi qonunchilikka muvofiq mazkur davlat mulki ob’ektini xususiylashtirish yuzasidan davlat ko‘chmas mulki bo‘yicha uning balansda saqlovchisiga, davlatga tegishli ulush (aksiya)lar bo‘yicha ishtirokchi (aksiyador) funksiyasini bajaruvchi tegishli davlat organiga so‘rov yuborildi.
Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan tasdiqlangan tartibga muvofiq uch oydan ortiq foydalanilmasdan bo‘sh turgan ob’ekt balansda saqlovchining roziligisiz ijaraga berish yoki sotish uchun savdoga chiqarilishi mumkin.
So‘rov natijasiga muvofiq Sizga 30 kun muddatda qo‘shimcha ravishda xabarnoma taqdim etiladi.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi yoki uning hududiy boshqarmasi mansabdor shaxsi lavozimi	QR-kod (matrik-shtrixli kod)	F.I.O.

Ijrochi: F.I.O.
Telefon: _____

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 12-dekabrdagi
429-11-0-Q/23-son qaroriga
10-ilova

Alohida uy-joyni (kvartira, uy, kvartiraning yoki uyning bir qismini) xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to‘g‘risida ma’lumotnoma berish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning

MA’MURIY REGLAMENTI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Reglament alohida uy-joyni (kvartira, uy, kvartiraning yoki uyning bir qismini) xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to‘g‘risida ma’lumotnoma berish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartibini belgilaydi.

2. Ma’lumotnoma ushbu Reglamentga 1-ilovaga muvofiq sxema bo‘yicha beriladi.

3. Mazkur Reglamentda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

ariza beruvchi — xususiylashtirilgan turar joy mulkdori, uning oila a’zolari yoki qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda mulkdor nomidan vakillik qilish vakolati berilgan shaxs, shuningdek, xususiylashtirishga rozilik bergan shaxs;

alohida uy-joy, kvartira — davlat mulkida bo‘lib xususiylashtirilgan alohida uy-joy, kvartira, uy, kvartiraning yoki uyning bir qismi;

vakolatli organ — tuman (shahar) hokimligi;

so‘rovnoma — mazkur Reglamentga 2-ilovaga muvofiq alohida uy-joy, kvartirani xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to‘g‘risida ma’lumotnoma berish uchun so‘rovnoma shakli;

ma’lumotnoma — mazkur Reglamentga 3-ilovaga muvofiq alohida uy-joy, kvartirani xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to‘g‘risida QR-kod (matrik-shtrixli kod) bilan tasdiqlangan ma’lumotnoma shakli.

4. Alohida uy-joy, kvartirani xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to‘g‘risida ma’lumotnoma berish bo‘yicha davlat xizmati Davlat xizmatlari markazi tomonidan va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o‘rinlarda — YaIDXP) orqali vakolatli organ bilan hamkorlikda ko‘rsatiladi.

5. Davlat xizmatlari markazi va YaIDXP hamda vakolatli organ o‘rtasida axborot almashinuvi idoralararo elektron tizimlar orqali 1 ish soati mobaynida amalga oshiriladi.

6. Mazkur Reglament notariatning faol modeli doirasida notariuslar tomonidan «yagona darcha» tamoyili bo‘yicha xususiylashtirilgan turar joyni boshqa shaxsga o‘tkazish shartnomasini notarial tasdiqlashda xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar haqida ma’lumotnoma olishga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2-bob. Davlat xizmatini ko‘rsatish tartibi

7. Ariza beruvchi davlat xizmatidan foydalanish uchun Davlat xizmatlari markaziga o‘zi kelib murojaat qiladi yoki davlat xizmatlaridan elektron shaklda foydalanish uchun YaIDXPda ro‘yxatdan o‘tadi.

8. Ariza beruvchi o‘zi kelib murojaat qilgan taqdirda — Davlat xizmatlari markazi xodimi ariza beruvchi nomidan, YaIDXP orqali murojaat qilgan taqdirda esa — mustaqil ravishda ushbu Reglamentga 2-ilovaga muvofiq shakldagi so‘rovnomani elektron tarzda to‘ldiradi.

So‘rovnomaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

alohida uy-joy, kvartira mulkdori ekanligini tasdiqlovchi hujjat;

mulkdorning oila a’zosi bo‘lgan taqdirda, ushbu faktni tasdiqlovchi hujjat (mulkka egalik qilish huquqini tasdiqlovchi hujjat bilan birga);

vakilning vakolatini tasdiqlaydigan ishonchnoma.

9. So‘rovnoma to‘ldirilgandan so‘ng ariza beruvchi ma’lumotlarning to‘g‘riligini tekshirib, so‘rovnomani identifikatsiya qilishning zamonaviy vositalari (mobil-ID tizimi, elektron imzo, daktiloskopiya va boshqalar) bilan tasdiqlaydi.

10. Ariza beruvchi tomonidan so‘rovnomani elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash talab etilmaydi.

11. Vakolatli organ kelib tushgan so‘rovnomani 1 ish soati mobaynida ko‘rib chiqadi.

12. Vakolatli organ tomonidan so‘rovnomada xato va kamchiliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish uchun tegishli izohlar bilan Davlat xizmatlari markaziga, YaIDXP orqali murojaat etilganda — ariza beruvchiga qaytaradi.

13. Ariza beruvchi tomonidan xato va kamchiliklar bartaraf etilmagan yoki so‘rovnoma takroran xato va kamchiliklar bilan yuborilgan taqdirda, vakolatli organ so‘rovnomani ko‘rib chiqishni rad etadi.

So‘rovnomani qabul qilishni boshqa sabablarga ko‘ra rad etish taqiqlanadi.

14. Vakolatli organ tomonidan so‘rovnomani tekshirish jarayonida xato va kamchiliklar aniqlanmagan taqdirda, ma’lumotnoma Davlat xizmatlari markaziga, YaIDXP orqali murojaat etilganda — ariza beruvchiga yuboriladi.

15. Davlat xizmatini ko‘rsatganlik uchun yig‘im undirilmaydi.

3-bob. Yakunlovchi qoidalar

16. Davlat xizmatlari markazi va vakolatli organ o‘z faoliyatini amalga oshirishi natijasida olingan ma’lumotlarning sir saqlanishini ta’minlaydi.

17. Farg‘ona viloyati Adliya boshqarmasi hamda davlat xizmatlari markazlari ushbu Reglament talablari ijrosi bo‘yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlarning faoliyatini, shu jumladan YaIDXP orqali, doimiy nazorat va monitoring qilib boradi.

18. Ariza beruvchi ma’lumotnoma berish asossiz rad etilganda, shuningdek, vakolatli organ xodimlarining xatti-harakati (harakatsizligi) ustidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

19. Ushbu Reglament talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 12-dekabrdagi
429-11-0-Q/23-son qaroriga
11-ilova

Alohida uy-joyni (kvartira, uy, kvartiraning yoki uyning bir qismini) xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to‘g‘risida ma’lumotnoma berish

SXEMASI

Bosqichlar	Sub’ektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Mulkdor, uning oila a’zolari, mulkdor tomonidan vakolat berilgan shaxslar va xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar	Xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to‘g‘risida ma’lumotnoma olish uchun Davlat xizmatlari markaziga o‘zi kelgan holda yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qiladi.	O‘z xohishiga ko‘ra
2-bosqich	1. Davlat xizmatlari markazi 2. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali	1. So‘rovnoma shaklini to‘ldirib, vakolatli organga (tuman (shahar) hokimligiga) yuboradi. 2. To‘ldirilgan so‘rovnoma avtomatik tarzda vakolatli organga (tuman (shahar) hokimligiga) yuboriladi.	1. So‘rovnoma to‘ldirilgandan keyin 30 daqiqada 2. Real vaqt rejimida
3-bosqich	Vakolatli organ (tuman (shahar) hokimligi)	So‘rovnomaga ko‘ra xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to‘g‘risida ma’lumotnoma taqdim etadi yoki so‘rovnomada xato va kamchiliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish uchun tegishli izohlar ko‘rsatgan holda qaytaradi.	1 ish soati ichida

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 12-dekabrdagi
429-11-0-Q/23-son qaroriga
12-ilova

Alohida uy-joyni (kvartira, uy, kvartiraning yoki uyning bir qismini) xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to‘g‘risida ma’lumotnoma olish uchun

SO‘ROVNOMA

Xususiylashtirilgan turar joy mulkdori — jismoniy shaxs to‘g‘risida ma’lumotlar	
1. Familiyasi, ismi, otasining ismi:	
2. Hudud:	
3. JShShIR (PINFL):	
4. Tug‘ilgan sanasi:	
5. Order raqami va sanasi:	
6. Pasport (ID-karta) seriyasi va raqami:	
Xususiylashtirilgan turar joy to‘g‘risida ma’lumotlar	
1. Turar joy joylashgan manzil:	
2. Xususiylashtirilgan turar joy kadastr raqami:	

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 12-dekabrdagi
429-11-0-Q/23-son qaroriga
13-ilova

Alohida uy-joyni (kvartira, uy, kvartiraning yoki uyning bir qismini) xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to‘g‘risida ma’lumotnoma berish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentiga

3-ILOVA

Xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to‘g‘risida

MA’LUMOTNOMA

Xususiylashtirilgan turar joy mulkdori — jismoniy shaxs to‘g‘risida ma’lumotlar	
1. Familiyasi, ismi, otasining ismi:	
2. Davlat orderi raqami va sanasi:	
Xususiylashtirilgan turar joy to‘g‘risida ma’lumotlar	
1. Turar joy joylashgan manzil:	
2. Turar joyga mulk huquqini beruvchi hujjat turi, sanasi va raqami:	
Xususiylashtirishda ishtirok etgan shaxslar to‘g‘risida ma’lumot	
Familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili (mavjud bo‘lsa):	
1.	
2.	

(vakolatli organ mansabdor shaxsi, lavozimi,) (F.I.O.)

QR-kod (matrik-shtrixli kod)

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 12-dekabrdagi
429-11-0-Q/23-son qaroriga
14-ilova

Davlat mulki ob’ektini xususiylashtirish uchun buyurtmanoma berish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning

MA’MURIY REGLAMENTI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Reglament nodavlat yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan davlat mulki ob’ektini xususiylashtirish uchun buyurtmanoma berish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartibini belgilaydi.

Mazkur Reglament davlat uy-joy fondiga qarashli uydagi kvartirani (uyning bir qismini) xususiylashtirishga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2. Davlat mulki ob’ektini xususiylashtirish uchun buyurtmanoma berish bo‘yicha davlat xizmati ushbu Reglamentga 1-ilovaga muvofiq sxema bo‘yicha ko‘rsatiladi.

3. Ushbu Reglamentda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

ariza beruvchi — davlat mulki ob’ektlarini xususiylashtirish yuzasidan ariza beruvchi nodavlat yuridik yoki jismoniy shaxs;

buyurtmanoma — davlat mulki ob’ektini sotish uchun mazkur Reglamentga 2 va 3-ilovalarga muvofiq tegishli buyurtmanoma shakli;

vakolatli organ — Davlat aktivlarini boshqarish agentligi yoki uning hududiy boshqarmalari;

davlat mulki ob’ekti — davlat ko‘chmas mulk ob’ektlari, xo‘jalik jamiyatlari ustav fondidagi (kapitalidagi) davlatga tegishli bo‘lgan ulushlar (aksiyalar);

xabarnoma — vakolatli organ mansabdor shaxslari tomonidan QR-kod (matrik-shtrixli kod) bilan tasdiqlangan xabarnoma shakli.

4. Davlat mulki ob’ektini xususiylashtirish yuzasidan ariza beruvchi davlat mulki ob’ektini sotish uchun Davlat xizmatlari markazi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o‘rinlarda — YaIDXP) orqali buyurtmanoma berishi mumkin.

5. Davlat xizmatlari markazi va vakolatli organ o‘rtasida axborot almashinuvi elektron raqamli imzoni (keyingi o‘rinlarda — ERI) majburiy tartibda qo‘llagan holda, faqat idoralararo elektron o‘zaro bog‘lanish orqali amalga oshiriladi.

6. Ariza beruvchi o‘zining doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan joyidan (yuridik shaxslar joylashgan manzilidan) qat’i nazar, istalgan Davlat xizmatlari markaziga borgan holda yoki YaIDXP orqali buyurtmanoma berishi mumkin.

2-bob. Davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartibi

7. Ariza beruvchi davlat xizmatidan foydalanish uchun Davlat xizmatlari markaziga o‘zi

kelib murojaat qiladi yoki davlat xizmatlaridan elektron shaklda foydalanish uchun YaIDXPda ro‘yxatdan o‘tadi.

8. Ariza beruvchi o‘zi kelib murojaat qilgan taqdirda, Davlat xizmatlari markazi xodimi ariza beruvchi nomidan, YaIDXP orqali murojaat etgan taqdirda esa-mustaqil ravishda ushbu Reglamentga 2 va 3-ilovalarga muvofiq shakldagi tegishli buyurtmanomani elektron tarzda to‘ldiradi.

Bunda buyurtmanomalar:

yuridik shaxs nomidan ushbu Reglamentga 2-ilovaga muvofiq shaklda rahbar yoki uning vakili tomonidan;

jismoniy shaxs nomidan ushbu Reglamentga 3-ilovaga muvofiq shaklda ariza beruvchining o‘zi yoki uning vakili tomonidan imzolanishi kerak.

9. Ariza beruvchi Davlat xizmatlari markaziga o‘zi kelib murojaat etganda buyurtmanoma Davlat xizmatlari markazi xodimi tomonidan to‘ldirilib, ariza beruvchi tomonidan tasdiqlangandan so‘ng real vaqt rejimida vakolatli organga elektron shaklda yuboriladi. YaIDXP orqali murojaat qilinganda esa, buyurtmanoma avtomatik tarzda vakolatli organga kelib tushadi.

10. Buyurtmanoma ariza kelib tushgan kundan boshlab 5 ish kuni ichida ko‘rib chiqiladi.

11. Vakolatli organ tomonidan buyurtmanomada xato va kamchiliklar mavjudligi aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish uchun tegishli izohlar bilan Davlat xizmatlari markaziga (YaIDXP orqali murojaat etilganda — ariza beruvchiga) qaytaradi.

12. Ariza beruvchi tomonidan xato va kamchiliklar bartaraf etilmagan yoki buyurtmanoma takroran xato va kamchiliklar bilan yuborilgan taqdirda, vakolatli organ buyurtmanomani ko‘rib chiqishni rad etadi.

Buyurtmanomani qabul qilishni boshqa sabablarga ko‘ra rad etish qat’iyan taqiqlanadi.

13. Vakolatli organ tomonidan buyurtmanomada xato va kamchiliklar aniqlanmagan taqdirda, ushbu Reglamentning 10-bandida nazarda tutilgan muddatda xabarnomani Davlat xizmatlari markaziga (YaIDXP orqali murojaat qilinganda — ariza beruvchiga) yuboradi.

14. Davlat xizmatini ko‘rsatganlik uchun yigim undirilmaydi.

3-bob. Yakunlovchi qoidalar

15. Davlat xizmatlari markazi va vakolatli organ o‘z faoliyatini amalga oshirishi natijasida olingan ma’lumotlarning sir saqlanishini ta’minlaydi.

16. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari hamda davlat xizmatlari markazlari ushbu Reglament talablari ijrosi bo‘yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlarning faoliyatini, shu jumladan YaIDXP orqali, doimiy nazorat va monitoring qilib boradi.

17. Ariza beruvchi buyurtmanoma berish asossiz rad etilganda, shuningdek, vakolatli organ xodimlarining xatti-harakati (harakatsizligi) ustidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

18. Ushbu Reglament talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 12-dekabrdagi
429-11-0-Q/23-son qaroriga
15-ilova

Davlat mulki ob’ektini xususiylashtirish uchun buyurtmanoma berish

SXEMASI

Bosqichlar	Sub’ektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Ariza beruvchi	Davlat mulki ob’ektini xususiylashtirishga buyurtmanoma berish uchun Davlat xizmatlari markaziga yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o‘rinlarda — YaIDXP) orqali murojaat qiladi.	O‘z xohishiga ko‘ra
2-bosqich	1. Davlat xizmatlari markazi 2. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali	1. Buyurtmanomani to‘ldiradi va tasdiqlaydi. 2. YaIDXP orqali murojaat etganda buyurtmanomani belgilangan elektron shaklda to‘ldiradi va tasdiqlaydi.	Real vaqt rejimida
3-bosqich	1. Davlat xizmatlari markazi 2. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali	1. Tasdiqlangan buyurtmanomani vakolatli organga (Davlat aktivlarini boshqarish agentligi yoki uning hududiy boshqarmalariga) yuboradi. 2. YaIDXP orqali murojaat etganda buyurtmanomani avtomatik tarzda yuboradi.	1. Buyurtmanoma to‘ldirilgandan keyin 30 daqiqada 2. Real vaqt rejimida
4-bosqich	Vakolatli organ (Davlat aktivlarini boshqarish agentligi yoki uning hududiy boshqarmalari)	1. Kelib tushgan buyurtmanomalarni ko‘rib chiqadi. 2. Kelib tushgan buyurtmanomalarda xato va kamchiliklar aniqlangan taqdirda, ularni izohlagan holda qaytaradi. 3. Xato va kamchiliklar mavjud bo‘lmagan taqdirda, buyurtmanoma qabul qilinganligi to‘g‘risida xabarnoma yuboradi.	5 ish kuni ichida

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 12-dekabrdagi
429-11-0-Q/23-son qaroriga
16-ilova

Davlat mulki ob’ektini sotish uchun

BUYURTMANOMA

_____ manzilida joylashgan
(manzil)

_____ ning
(davlat ko‘chmas mulk ob’ekti yoki davlat ulushi mavjud bo‘lgan xo‘jalik jamiyatining nomi)

davlat mulki ob’ektini sotish to‘g‘risida qaror qabul qilishingizni so‘rayman.

_____
(davlat ko‘chmas mulki ob’ekti bo‘yicha balansda saqlovchi)

_____
(ariza beruvchi to‘g‘risida ma’lumotlar)

_____
(nodavlat yuridik shaxsning nomi)

_____
(manzili, telefon raqami)

_____
(ro‘yxatdan o‘tkazish raqami va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sana)

_____
(tashkiliy-huquqiy shakli)

_____
(ustav fondidagi davlat ulushi, foizlarda)

Buyurtmanomani imzolashga vakil qilingan shaxs:

_____
(F.I.O., lavozimi)

Izoh. Hujjatni to‘ldirishda tuzatish va o‘chirib yozishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 12-dekabrdagi
429-11-0-Q/23-son qaroriga
17-ilova

Davlat mulki ob’ektini sotish uchun

BUYURTMANOMA

_____ning
(davlat ko‘chmas mulk ob’ekti yoki davlat ulushi mavjud bo‘lgan xo‘jalik jamiyatining nomi)

davlat mulki ob’ektini sotish to‘g‘risida qaror qabul qilishingizni so‘rayman.

_____ manzilida joylashgan
(manzil)

_____
(davlat ko‘chmas mulki ob’ekti bo‘yicha balansda saqlovchi)

_____
(ariza beruvchi to‘g‘risida ma’lumotlar)

_____
(jismoniy shaxsning F.I.O.)

_____
(manzili, telefon raqami)

_____
(pasport seriyasi, raqami, kim tomonidan va qachon berilgan)

Izoh. Hujjatni to‘ldirishda tuzatish va o‘chirib yozishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 12-dekabrdagi
429-11-0-Q/23-son qaroriga
18-ilova

Davlat mulki ob’ektini xususiylashtirish uchun buyurtmanoma berish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentiga

O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan blank

_____
(nodavlat yuridik yoki jismoniy shaxs)

Davlat mulki ob’ektini xususiylashtirish uchun buyurtmanoma berish yuzasidan XABARNOMA

Sizning_____ manzilida
(davlat mulki ob’ekti joylashgan manzili)

joylashgan _____
davlat mulki
(davlat mulki ob’ekti nomi)

ob’ektini xususiylashtirish uchun yuborgan buyurtmanomangiz qabul qilindi.
Amaldagi qonunchilikka muvofiq mazkur davlat mulki ob’ektini xususiylashtirish yuzasidan davlat ko‘chmas mulki bo‘yicha uning balansda saqlovchisiga, davlatga tegishli ulush (aksiya)lar bo‘yicha ishtirokchi (aksiyador) funksiyasini bajaruvchi tegishli davlat organiga so‘rov yuborildi.
Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan tasdiqlangan tartibga muvofiq uch oydan ortiq foydalanilmasdan bo‘sh turgan ob’ekt balansda saqlovchining roziligisiz ijaraga berish yoki sotish uchun savdoga chiqarilishi mumkin.
So‘rov natijasiga muvofiq Sizga 30 kun muddatda qo‘shimcha ravishda xabarnoma taqdim etiladi.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi yoki uning hududiy boshqarmasi mansabdor shaxsi lavozimi	QR-kod (matrik-shtrixli kod)	F.I.O.

Ijrochi: F.I.O.
Telefon: _____